

**WEB TEXNOLOGIYA ASOSLARI. WEB SAYT YARATISH
TUSHUNCHASI**

Botirov Shohjahon Bobur o'g'li

*Muxammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari
Universiteti AKTsKT fakulteti talabasi*

Tursunova Muxlisa Maxamadjon qizi

*Muxammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari
Universiteti AKTsKT fakulteti talabasi*

Bekniyozova Shaxodat Shavkatovna

*Muxammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari
Universiteti AKTsIM fakulteti talabasi*

Annotatsiya

Bugungi kunda Internet hayotimizning bir bo'lagiga aylangan, internet xizmatlaridan har kuni foydalanamiz.

Web texnologiyalar rivojlanishi natijasida web-sahifalar tarkibida Plug-in dasturlari joylashtirila boshlandi, natijada web-sahifalarga interaktiv xususiyat berildi. Web-texnologiya bu – Internet texnologiyalaridan biri bo'lib, Web-serverdagi axborotni qayta ishlash va sirkulyatsiya qilish bilan bo'liq. Web-saytlarimizni yaratish uchun dasturlash tillaridan foydalanamiz. Web-saytlar bugungi kunda ko'p foydalanmiz. Ushbu web-saytni yaratish haqida tushunchalarga ega bolamiz.

Kalit so'zlar: Internet, WWW, web-sayt, web sahifa, HTML, CSS, JavaScript, teg, atribut.

Internet ixtiro qilinshidan avvalgi davrni tasavvur qiling: veb-saytlar bo'lmagan, axborot olishning asosiy manbayi esa faqat qog'oz formatidagi kitoblar... Kerakli ma'lumotni topish yoki bir necha yil avvalgi ma'lumotlarni izlash uchun ancha vaqt va kuch sarflashga to'g'ri kelar edi. Bugun esa web-brauzerni ochib, kerakli qidiruv tizimidan xohlagan axborotni qidirishingiz mumkin. Qisqa vaqt ichida istagan ma'lumotingiz qo'lingizda, hatto kimdir sizning qidiruvingizni hisobga olgan holda veb-sayt yaratgan bo'lishi ham mumkin. Veb-saytlardan ma'lumot qidirish, yoqtirgan hikoyani o'qish, ijtimoiy tarmoqlarda suhbatlashish, musiqa va filmlarni yuklab olish, kompyuter o'yinlarini o'ynash kabi maqsadlarda foydalanish mumkin. Har bir veb-saytning muhim jihatlaridan biri – u qanday maqsadda yaratilmasin, foydalanuvchi (maqsadli auditoriya uchun qulay dizaynga ega bo'lishidir. Veb-saytning maqsadi aniq, dizayni puxta o'ylangan, undagi elementlar tartibli joylashtirilgan bo'lsa, uning foydalanuvchilari soni ham ortib boradi.

Butunjahon o'rgimchak to'ri (WWW) – gipermatn texnologiyasiga asosan tarqatilgan axborotlar tizimi. Tarqatilgan deyilishiga sabab, birinchi kompyuterda aks etib turgan axborot yonidagi ikkinchi kompyuterda yoki dunyoning boshqa bir burchagidagi serverda joylashgan bo'lishi mumkin. Birinchi serverda joylashgan veb-sahifaga boshqa serverdagi rasmni uning to'liq manzilini ko'rsatgan holda joylashtirish mumkin.

Veb-sahifa – tarkibida matn, tasvir, video, giper murojaat va boshqa ma'lumotlarni saqlovchi Internetdagi sahifa yoki veb-saytning bitta sahifasi.

Veb-sayt – veb-sahifalar majmui.

Gipermatn – veb-sahifaning bir qismiga yoki boshqa veb-sahifaga oson va tez o'tish imkoniyatini beruvchi matn.


Maqsadli auditoriya – veb-sahifani ko'ruvchi foydalanuvchilar.

Maqsad – veb-saytni yaratishdan ko'zlangan natija (masalan, kitob sotish, ko'ngilochar maqsadlar)

WEB sayt yaratishda asosan HTML, CSS, JAVASCRIPT tillaridan foydalaniladi.

WWWdagi veb-sahifani yaratishda kodlash tili HTMLdan foydalaniladi. HTML (ingl. Hyper Text Markup Language – gipermatnli belgilash tili) – veb-sahifa kontentini oddiy matn yordamida aks ettiruvchi maxsus kod. HTML tili belgi va qoidalar to'plamidan iborat standart til bo'lib, so'nggi versiyasi HTML5 deb nomlanadi. Veb-sahifa tuzilishini yaratish uchun HTML-kodni yozishda „teglar“dan foydalaniladi. Bu teglar veb-sahifadagi matn va rasmlar veb-brauzerda qanday aks etishini anglatadi. Brauzerlar HTML-kodni o'qiydi va kontentni aks ettiradi, lekin teglarni ko'rsatmaydi. HTMLda teglar va atributlardan foydalaniladi.

O'quv qurollari saytimizni ko'rinishi:



1-rasm. Sayt ko'rinishi

Endi esa HTML kodlaridan foydalanib saytimizni navbar qismini tuzamiz

```

Users > MUHUSA > AppData > Local > Temp > Temp1_shohijahon-main.zip > shohijahon-main > index.html > ...
1 | |DOCTYPE html>
2 | <html lang="en">
3 | <head>
4 |   <meta charset="UTF-8">
5 |   <meta http-equiv="X-UA-Compatible" content="IE=edge">
6 |   <meta name="viewport" content="width=device-width, initial-scale=1.0">
7 |   <link rel="stylesheet" href="/styles/main.css">
8 |   <link rel="stylesheet" href="/styles/bootstrap.css">
9 |   <link rel="stylesheet" href="/styles/main.scc">
10 |   <title>Konstovar</title>
11 | </head>
12 | <body>
13 |   <header class="bg-danger ">
14 |     <div class="container">
15 |       <div class="col-12 w-100">
16 |         <h1 class="ms-3 pt-2 pb-2">O'quv qurollar do'koni</h1>
17 |       </div>
18 |     </div>
19 |   </header>
20 |   <main>
21 |
22 |
23 |
24 |
25 |
26 |
27 |   <div class="modal-window modal-hide">
28 |
29 |     <div class="modal-container position-relative p-4 rounded-3">
30 |       <div class="btn btn btn-danger position-absolute end-0 me-4 id="close">X</div>
31 |       <div class="modal-content container">

```

2-rasm.Navbar qismini HTML qismi

CSSda web sahifamizni dizayni bilan shug'ullanamiz.

Misol uchun O'quv qurollari saytimizni navbar qismini Ccss kodini ko'rib chiqamiz:

```

C: > Users > MUHUSA > AppData > Local > Temp > Temp1_shohijahon-main.zip > shohijahon-main > styles > # main.css > .modal-window
1 | .salom{
2 |   display: grid;
3 |   grid-template-columns: repeat(Auto-fill, minmax(320px, 1fr));
4 |   gap: 10px;
5 |
6 | }
7 | *{
8 |   margin: 0;
9 |   padding: 0;
10 |   box-sizing: border-box;
11 |   scroll-behavior: smooth;
12 | }
13 |
14 |
15 |
16 | .modal-window {
17 |   width: 100% !important;
18 |   min-height: 100% !important;
19 |   background-color: rgba(0, 0, 0, 0.793);
20 |   backdrop-filter: blur(16px);
21 |   position: fixed;
22 |   top: 0;
23 |   z-index: 99999;
24 |   display: flex;
25 |   justify-content: center;
26 |   align-items: center;
27 |   transition: all 0.2s linear;
28 | }

```

3-rasm. CSS kod

Ushbu Css kodlarida saytimizni navbar qismiga ranglar berilganligi yozuvlar o'zgartirilganligi, oralaridagi joylarni o'zgarganligini ko'rishimiz mumkun. Css kodlari har bir saytimizning asosi desak mubolag'a bo'lmaydi.

JavaScript – bu Webni gipermatnli sahifalarini klient tomonida ko'rish senariyalarini boshqarish tili. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsa, Javascript – bu nafaqat klient tomonidagi dasturlash tili. Liveware Javascript tilining avlodi bo'lib, Netscape serveri tomonida ishlovchi vosita bo'ladi. Ammo Javascript tilini mashhur qilgan narsa bu klient tomonida dasturlashdir. Javascriptning asosiy vazifasi – HTML konteynerlar atributlarining qiymatlarini va ko'rsatuvchi muhitining hossalarni HTML sarlavhalarni ko'rish jarayonida foydalanuvchi tomonidan o'zgartirish imkoniyatlarida, boshqacha aytganda ularni dinamik sarlavhalar qilish. Yana shuni aytish joizki, sarlavxalar qayta yuklanmaydi amalda buni, masalan, quyidagicha ifodalash mumkin, sarlavxaning fonini rangini yoki xujjatdagi rasmni o'zgartirish, yangi oyna ochish yoki ogoxlantirish oynasini chiqarish uchun Javascriptdan keng foydalaniladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkunki hozirgi kunda turli web-saytlardan ma'lumot qidirish, yoqtirgan hikoyani o'qish, ijtimoiy tarmoqlarda suhbatlashish, musiqa va filmlarni yuklab olish, kompyuter o'yinlarini o'ynash, Ro'yxatdan o'tib turli kurslarga yoki biror narsa xarid qilish kabi maqsadlarda foydalanish mumkin. Web-saytlarni esa Frontend yo'nalishi yani Html, Css, JavaScript tillaridan foydalangan holda yaratamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boltayev B. J. va boshq. Informatika: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.
2. Fayziyeva M. R., Sayfurov D. M., Atamuratov R. K., Tilovova M. M., Bagbekova L. K. Informatika va axborot texnologiyalari [Matn] : 7-sinf uchun darslik / – Toshkent : Respublika ta'lim markazi, 2021. – 160 b
3. <https://www.w3schools.com>.
4. <https://Wikipedia.uz>.
5. <https://fayllar.org>